



MUHAMMAD ALI JAMOLZODA - FOUNDER OF THE SHORT STORY GENRE

Zilola Abdullayeva

4th-year student of the Persian-English group

Higher School of Iranian and Afghan Studies

Tashkent State University of Oriental Studies

Email: zilolasena@gmail.com

D. Yusupova

Senior Lecturer at the Higher School of Iranian and Afghan Studies

TSUOS

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Muhammad Ali Jamolzoda, short story, Persian literature, realism, social issues, artistic expression.

Received: 28.04.25

Accepted: 10.05.25

Published: 14.05.25

Abstract: This article analyzes Muhammad Ali Jamolzoda's contribution to the development of the short story genre. He is regarded as the founder of realism in Persian literature and is known for his works that expose social issues in society. His stories are distinguished by their simple language and strong artistic expression. This article explores the writer's literary legacy, the unique features of his short stories, and their impact on Persian literature.

MUHAMMAD ALI JAMOLZODA - QISQA JANRLI HIKOYALAR ASOSCHISI

Zilola Abdullayeva

4-kurs fors-ingliz guruhi talabasi

"Eronshunoslik va afg'onshunoslik" oliy maktabi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

E-mail: zilolasena@gmail.com

Toshkent, O`zbekiston

D. Yusupova

Katta o'qituvchi

"Eronshunoslik va afg'onshunoslik" oliy maktabi

TDShU

Toshkent, O`zbekiston

МАҚОЛА НАҚИДА

Kalit so‘zlar: Muhammad Ali Jamolzoda, qisqa hikoya, fors adabiyoti, realizm, ijtimoiy muammolar, badiiy ifoda.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Muhammad Ali Jamolzodaning qisqa janrlı hikoyalari rivojiga qo’shgan hissasi tahlil qilinadi. U fors adabiyotida realizm asoschisi bo‘lib, jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni olib beruvchi asarlari bilan mashhur. Uning hikoyalari sodda tili va kuchli badiiy ifodasi bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada adibning ijodi, hikoyalarning o‘ziga xos xususiyatlari hamda fors adabiyotiga ta’siri yorilidi.

МУХАММАД АЛИ ДЖАМОЛЗОДА - ОСНОВАТЕЛЬ ЖАНРА КОРОТКОГО РАССКАЗА

Зилола Абдуллаева

Студентка 4-го курса группы персидского и английского языков

Высшая школа иранистики и афганистики

Ташкентский государственный университет востоковедения

E-mail: zilolasena@gmail.com

Д. Юсупова

старший преподаватель

Высшей школы иранистики и афганистики

ТГУВ

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Мухаммад Али Джамолзода, короткий рассказ, персидская литература, реализм, социальные проблемы, художественное выражение.

Аннотация: В данной статье анализируется вклад Мухаммада Али Джамолзоды в развитие жанра короткого рассказа. Он считается основателем реализма в персидской литературе и известен своими произведениями, раскрывающими социальные проблемы общества. Его рассказы выделяются простым языком и сильным художественным выражением. В статье рассматриваются творчество писателя, особенности его рассказов и их влияние на персидскую литературу.

Adabiyot har bir xalqning madaniy merosi va ma’naviy qadriyatlarini ifodalovchi muhim vositadir. Fors adabiyotida ham zamonaviy realizm va hajviy hikoyalari janri rivojiga katta hissa qo’shgan adiblardan biri Muhammad Ali Jamolzodadir. U Eron adabiyotida yangi uslub va mazmun olib kirgan yozuvchi sifatida tanilgan. Ushbu maqolada Jamolzodaning hayoti, ijodi va uning qisqa hikoyalari janriga qo’shgan hissasi tahlil qilinadi.

Muhammad Ali Jamolzoda (1892-1997) – Eron adabiyotining taniqli yozuvchilaridan biri bo‘lib, u zamonaviy fors nasrining asoschilaridan hisoblanadi. U hajviy hikoyalari orqali Eron

jamiyatining muammolarini olib berishga harakat qilgan. Uning ijodi faqatgina adabiyot bilan cheklanib qolmay, balki ijtimoiy tanqid, siyosiy hajv va realistik tasvir usullari bilan ham boyitilgan. Jamolzoda “يکى بود يكى نبود” (“Yeki bud-o yeki nabud”) asari bilan fors nasriga yangi uslub olib kirdi.

Muhammad Ali Jamolzoda 1892-yilda Eronning Isfahon shahrida tug‘ilgan. Otasi Sayyid Jamoliddin Jamolzoda o‘sha davrning mashhur diniy va siyosiy shaxsi bo‘lgan. Siyosiy faoliyati tufayli Jamolzodalar oilasi ko‘p joylarga ko‘chib yurgan. Yosh Muhammad Ali dastlab Eron madrasalarida o‘qigan, keyinchalik Bayrut, Parij va Lozannada tahsil olgan.

Jamolzoda yoshligidan adabiyot va jurnalistikaga qiziqqan. U “Rastoxiz” gazetasi hamda Berlinda chiqadigan “Kove” jurnalida faoliyat yuritgan. 1922-yilda “يکى بود يكى نبود” asarining chop etilishi uning adabiy faoliyatida burilish yasadi. Asar Eronda katta shov-shuvga sabab bo‘ldi va hatto taqiqlangan. Bunga sabab – undagi hajviy tasvirlar va realistik uslub bo‘lib, Jamolzoda Eron jamiyatidagi savodsizlik,adolatsizlik va eskicha tushunchalarni keskin tanqid qilgan. Muhammad Ali Jamolzoda umrining katta qismini Germaniyada o‘tkazdi va ko‘plab ilmiy va adabiy ishlar bilan shug‘ullandi. U 1997-yilda vafot etdi va Eron adabiyotining buyuk yozuvchilaridan biri sifatida e’tirof etildi.

Muhammad Ali Jamolzoda o‘z hikoyalarida oddiy xalq hayotini tasvirlashga intilgan. Uning uslubi sodda, ravon va tushunarli bo‘lib, o‘quvchiga yaqin edi. U fors nasrini murakkab va balandparvoz uslubdan tozalab, uni kundalik so‘zlashuv tiliga yaqinlashtirdi.

“Forsiy shakar ast” - zamонавиј fors tili muammolariga bag‘ishlangan. Hikoyaning mazmuni shundan iboratki, taqdir taqazosi bilan bojxona xodimlari tomonidan hibsga olingan 4 eronlik mahbus zindonda uchrashib qoladilar. Ulardan choyxonachi Ramazon bo‘lib, u to‘satdan hibsga olinish sababini tushuntirib berishlarini istaydi. Dastlab mulla unga tushuntirishga urinadi. U o‘z nutqida ko‘plab arabiy iqtiboslar ishlatadi. Keyin navbat yevropalashgan eronlikga keladi. Uni nutqi esa yevropacha so‘zlar bilan to‘la bo‘ladi. Ramazon ularning gapidan hech nimani tushunmaydi va ularni jinni deb o‘ylaydi. Yozuvchi bu orqali Eron ilmiy va diniy olimlarining xalqdan uzoqlashib ketganligini ko‘rsatadi.

“Shimoliy ona ayiq quchog‘ida” - Bu hikoya inson xarakteri dramatizmi bilan ajralib turadi. Yosh, kuchli, quvnoq Habibullo yo‘lda ketayotib, yarador va muzlab qolishiga bir banya qolgan rus kazagini uchratib qoladi. Habibullo unga rahmi kelib, manziliga yetvolguncha o‘zi bilan olib ketadi. Ammo Habibulloda pul borligini bilgan kazak birinchi uchragan postdayoq sheriklariga shu haqida xabar beradi va kazaklar Habibulloni otib o‘ldiradilar. Yarador kazak esa uning pulini olib qo‘yadi.

“Shimoliy ona ayiq quchog‘ida” - Bu hikoya inson xarakteri dramatizmi bilan ajralib turadi. Yosh, kuchli, quvnoq Habibullo yo‘lda ketayotib, yarador va muzlab qolishiga bir banya qolgan rus kazagini uchratib qoladi. Habibullo unga rahmi kelib, manziliga yetvolguncha o‘zi bilan olib ketadi. Ammo Habibulloda pul borligini bilgan kazak birinchi uchragan postdayoq sheriklariga shu haqida xabar beradi va kazaklar Habibulloni otib o‘ldiradilar. Yarador kazak esa uning pulini olib qo‘yadi.

Jamolzodaning boshqa mashhur hikoyalari orasida -Darالمجانين“-Dorulmajnun”(Jinnixona) ، - صحرای محشر“- Sahroye Shohkor” ، - كلتshan devon”(Kultashan devon,1946)، - شاهکار“- Rahobnome” (Suv quvuri haqida qissa, 1947)، - راهنماه“- Mahshar sahrosi,1947)، - طلح و“- Talh-o shirin” (Achchiq va shirin, 1955)، - غير“- Kohne va nou”(Eski va yangi, 1959)، - شیرین“- G‘eyr az xudo hichkas nabud” (Xudodan o‘zga hech kim yo‘q edi, 1961)، - قصههای“- Qessehoye kutoh baroye bachchehoye rishdor” (Soqolli bolalar uchun qisqa qissalar, 1973)، - قصهی ما به سر رسید“- Qesseye mo be sar resid” (Bizning qissa poyoniga yetdi, 1978) kabi asarlar ham bor.

“Vaylan al-Davla” hikoyasining tahlili

Ushbu hikoyada Jamolzoda jamiyat tomonidan rad etilgan insonning fojeali hayotini tasvirlaydi. Asarning bosh qahramoni Vaylon ad-Davla jamiyat tomonidan beparvolik va loqaydlik qurbaniga aylanadi. Hikoya orqali yozuvchi insoniy qadriyatlar yo‘qolib borayotganini ko‘rsatib beradi. Vaylon ad-Davla shaxsiy uyiga ega bo‘lmagan, har kuni boshqalarning uyida tunaydigan qashshoq inson sifatida tasvirlanadi. Uning boshqalardan olgan kiyimlari, yotadigan joyining yo‘qligi uning hayotidagi qiyinchiliklarni aks ettiradi.

Hikoya realistik janrda yozilgan bo‘lib, unda istehzo va satira juda kuchli aks etgan. Jamolzoda qahramonlar orqali jamiyatdagi muammolarni ochib beradi. Hikoyaning badiiy xususiyatlari uning tasviriy vositalari, realistik yondashuvi va insoniy muammolarga e’tibor qaratganligi bilan ajralib turadi.

Muhammad Ali Jamolzoda Eron adabiyotida yangi davrni boshlab bergan ijodkorlardan biridir. U qisqa hikoya janrini rivojlantirib, adabiyotda realizmni keng targ‘ib etgan. Uning asarlari nafaqat adabiy, balki ijtimoiy jihatdan ham dolzarb ahamiyatga ega. Uning hikoyalari hozirgi kunda ham jamiyatdagi muammolarni yoritishda muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Shunday ekan, Jamolzodaning ijodi nafaqat Eron, balki butun jahon adabiyoti uchun qimmatli meros sanaladi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jamolzoda M.A. “يىكى بود يىكى نبود“ (Bir bor ekan, bir yo‘q ekan). Tehron, 1921.
2. Hasani A. “Zamonaviy fors adabiyoti tarixi”. Tehron, 1995.
3. Shafak N. “Fors adabiyoti va tanqidiy realizm”. Istanbul, 2010.
4. O‘ktamov Z. “Jamolzoda hikoyalari tahlili”. Toshkent, 2018.
5. Karimov, H. XX asr Eron hikoyachiligi – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2005.
6. Nafisi, S. Muhammad Ali Jamolzoda: Hayot va ijod – Tehron: Kitob dunyosi, 1980.